

## MAKTAB TA'LLIMIDA O'QUVCHILAR KOMPETENSIYASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY MEZONLARI VA MODEL

*Ilmiy rahbar: Qodirov Kamoliddin Botirovich*

*Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini mudiri*

*Tel: +998(94) 693-38-04*

**Jahongirova Dilzoda Nosirjon qizi.**

*Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti*

*Ta'lim menejmenti fakulteti 1- kurs MO2521A guruh.*

*Email: [dilzodajahongirova7777@gmail.com](mailto:dilzodajahongirova7777@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilar kompetensiyalarini baholashning zamonaviy mezonlari, ularning pedagogik asoslari, kompetensiyaviy ta'lim talablari hamda baholashning formatif va summativ yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli baholash texnologiyalaridan foydalanish, xalqaro baholash dasturlarining mezonlari, o'quvchilarning funksional savodxonligini aniqlash indikatorlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *kompetensiya, baholash mezonlari, formatif baholash, summativ baholash, funksional savodxonlik, monitoring, xalqaro baholash, o'quv jarayoni.*

## СОВРЕМЕННЫЕ КРИТЕРИИ И МОДЕЛИ ОЦЕНКИ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Научный руководитель: Кодиров Камолиддин Ботирович*

*Заведующий кафедрой «Педагогика и психология» Ташкентского университета*

*социальных инноваций*

*Тел.: +998(94) 693-38-04*

**Джахонгирова Дилзода Насирджон кызы.**

*Магистрант Университета Пучон в Ташкенте*

*Факультет образовательного менеджмента, 1 курс, группа MO2521A.*

*Электронная почта: [dilzodajahongirova7777@gmail.com](mailto:dilzodajahongirova7777@gmail.com)*

**Аннотация:** *В статье анализируются современные критерии оценки компетенций учащихся в системе общего среднего образования, их педагогические основы, требования к компетентностному образованию, формирующий и итоговый подходы к оценке. Также научно обосновано использование цифровых оценочных технологий, критериев международных оценочных программ и индикаторов для определения функциональной грамотности учащихся.*

**Ключевые слова:** компетентность, критерии оценки, формирующее оценивание, итоговое оценивание, функциональная грамотность, мониторинг, международная оценка, образовательный процесс.

## MODERN CRITERIA AND MODEL OF ASSESSMENT OF STUDENT COMPETENCES IN SCHOOL EDUCATION

*Scientific advisor:* **Qodirov Kamoliddin Botirovich**

*Head of the Department of "Pedagogy and Psychology", Tashkent University of Social  
Innovation*

*Tel: +998(94) 693-38-04*

**Jahongirova Dilzoda Nasirjon qizi.**

*Master's student at Bucheon University in Tashkent  
Faculty of Educational Management 1st year MO2521A group.*

*Email: [dilzodajahongirova7777@gmail.com](mailto:dilzodajahongirova7777@gmail.com)*

**Annotation:** *This article analyzes modern criteria for assessing students' competencies in the general secondary education system, their pedagogical foundations, requirements for competency-based education, and formative and summative approaches to assessment. Also, the use of digital assessment technologies, criteria for international assessment programs, and indicators for determining students' functional literacy are scientifically substantiated.*

**Keywords:** *competence, assessment criteria, formative assessment, summative assessment, functional literacy, monitoring, international assessment, educational process.*

### KIRISH

Bugungi kunda umumiy o'рта ta'lim tizimida o'quvchilar bilimini baholash jarayonini modernizatsiya qilish, uni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta qurish eng dolzarb vazifalardan biridir. Ta'limning yangi paradigmasi o'quvchini markazga qo'ygan, uning amaliy ko'nikmalari, funksional savodxonligi, kreativ fikrlashi va muloqot kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Shu sababli baholash tizimining yangilanishi, uni shaffof, tizimli, mezonli hamda xalqaro standartlarga mos qilish zamon talabi sifatida qaralmoqda. Zero, davlatimiz tomonidan qabul qilingan so'nggi qarorlar ham kompetensiyaviy baholashga o'tishning ilmiy-amaliy asoslarini belgilab bermoqda.

Xususan, "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmonida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar bilimini baholashning xalqaro mezonlari bilan uyg'unlashtirish, raqamli baholash mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilangan.[1] Unda ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, baholashning shaffofligini ta'minlash va o'quvchilarning funksional savodxonligini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan tizim yaratish zarurligi qayd etilgan. Bu esa

o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatiga ko'ra baholashni talab etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risida"gi 787-son qarorida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan asosiy va predmet kompetensiyalari aniq belgilab berilgan.[2] Mazkur qarorda kompetensiyalarni baholashning mezonlari, o'quvchilar faoliyatini formatif va summativ baholash orqali aniqlashning metodik asoslari bayon etilgan. Qarorda ta'kidlanishicha, baholashning yangi modeli o'quvchilarni faqat bilim darajasi bo'yicha emas, balki "bilimni amaliy faoliyatda qo'llash, tahlil qilish, muloqot qilish, ijodiy yondashuv ko'nikmalariga ega bo'lish" tamoyillari asosida baholanishini ko'zda tutadi (VMQ-787, 2022).

Ushbu rasmiy hujjatlar asosida O'zbekiston ta'lim tizimi kompetensiyaviy yondashuvga o'tish jarayonini yanada jadallashtirmoqda. Buning natijasida baholashning zamonaviy mezonlari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi: aniq indikatorlar bilan belgilanishi, o'quvchilar faoliyatini bosqichma-bosqich monitoring qilish imkoniyatini yaratishi, o'qituvchilar tomonidan xolis va shaffof tarzda qo'llanilishi, o'quvchilarning individual rivojlanishini aks ettira olishi.

Yangi baholash tizimi nafaqat nazariy o'zlashtirishni, balki o'quvchining mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish qobiliyati, axborot bilan ishlash madaniyati, ijodiy yondashuvi va kommunikativ kompetensiyasini o'lchashi lozim. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi esa baholash jarayonini avtomatlashtirish, learning analytics texnologiyalari yordamida o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash, elektron portfoliolar orqali ko'nikmalarni kompleks baholash imkonini bermoqda.

Shu tariqa, zamonaviy baholash tizimi maktab ta'limida kompetensiyalarni aniqlashning yangi ilmiy-uslubiy modelini talab etmoqda. Ushbu maqola mazkur modelning ilmiy asoslari, tashkiliy mexanizmi va amaliy yo'nalishlarini yoritishga qaratilgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotda o'quvchilar kompetensiyasini baholashga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar nazariy tahlil qilindi. Baholashning zamonaviy mezonlarini aniqlash uchun mavjud milliy tizim xalqaro tajribalar bilan qiyosiy o'rganildi. Amaliyotdagi muammolarni belgilash maqsadida diagnostik tahlil va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida kompetensiyaviy baholashning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

O'quvchilar kompetensiyasini baholashga oid ilmiy adabiyotlar tahlili mazkur yo'nalishda olib borilgan izlanishlarning keng qamrovli va o'ziga xos metodologik asosga ega ekanini ko'rsatadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda kompetensiya tushunchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarni integrallashgan holda amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Xususan, V. A. Bolotov va A. A. Leontyev kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim natijalarining mazmuniy jihatdan yangilanishi sifatida baholaydi va o'quvchilar rivojlanishini real vaziyatlarda namoyon bo'ladigan faoliyat bilan bog'laydi [3].

Xalqaro baholash dasturlari kompetensiyaviy baholashning asosiy mezonlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. OECD tomonidan tashkil etilgan PISA dasturi o'quvchilarning funksional savodxonligini — matnni tushunish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini baholaydi [4]. TIMSS va PIRLS tadqiqotlari esa o'quvchilarning predmet bilimlari va o'qish savodxonligi rivojlanishini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ular kompetensiyalarni baholashda integrativ yondashuvni taklif etadi [5]. Ushbu xalqaro tajriba O'zbekiston ta'lim tizimida baholash mezonlarini modernizatsiya qilishga asos bo'lmoqda.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda ham kompetensiyaviy baholashning ilmiy-pedagogik asoslari keng yoritilgan. A. Abduqodirov va SH. Toshpulatovlar kompetensiyaga asoslangan ta'limning asosiy mezonlarini aniqlab, baholash jarayonida o'quv faoliyatining turli bosqichlaridagi rivojlanish dinamikasini monitoring qilish zarurligini qayd etadi [6]. Boshqa tadqiqotlarda kompetensiyalarni baholashda mezonli (kriterial) yondashuvning ustunliklari — shaffoflik, xolislik, aniq indikatorlar mavjudligi, o'quvchi faoliyatining bosqichma-bosqich baholanishi ta'kidlanadi [7].

Raqamli baholash texnologiyalarining jadal rivojlanishi kompetensiyalarni baholashning yangi metodlarini yaratishga olib keldi. Elektron portfoliolar, learning analytics, test natijalarini avtomatik tahlil qilish tizimlari, sun'iy intellektga asoslangan baholash modellarining qo'llanishi so'nggi yillarda keng o'rganilmoqda. Masalan, J. Bower va L. Staley raqamli baholash vositalari o'quvchilar rivojlanishining chuqur tahlilini olib borish, taxminiy natijalarni modellashtirish va individual o'quv trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatini berishini ta'kidlaydi[8].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy baholash zamonaviy ta'limning markaziy komponentiga aylangan bo'lib, uning samarasi mezonlarning aniqligi, baholashning shaffofligi va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasiga bog'liq. Ilmiy manbalarda kompetensiyalarni baholashning integrativ modeli, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash, holis natijalarga erishish uchun ko'p indikatorli baholash tizimini yaratish eng optimal yechim sifatida ko'rsatilgan.


### **TAHLIL VA NATIJALAR**

O'qituvchilar esa o'quv jarayonini tahlil qilish, o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali metodik yondashuvini takomillashtiradi. Ushbu maqolada mezonlarga asoslangan baholashning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati, ta'limdagi roli, asosiy maqsad va vazifalari batafsil yoritiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy o'zgarishlar va takomillashuvlar jarayonida rivojlanib borar ekan, uning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – baholash tizimining isloh qilinishidir.

Ta'limdagi baholash – bu nafaqat o'quvchining bilim va ko'nikmalarini aniqlashga xizmat qiluvchi vosita, balki ta'lim jarayonining ajralmas, samaradorlikni belgilovchi muhim tarkibiy qismidir.

Shu munosabat bilan mezonlarga asoslangan baholash tizimi tobora keng e'tirof etilmoqda. Chunki bu yondashuv o'quvchilarning bilim darajasini faqatgina raqamlar orqali emas, balki ularning faoliyatidagi sifatli o'zgarishlar asosida baholashga imkon yaratadi.



1-rasm Mezonlarga asoslangan baholash tizimi

An'anaviy baholash usullarida ko'pincha subyektivlik, noto'g'ri xulosalarga olib keluvchi omillar, umumiy standartlarning yo'qligi seziladi. Bu holat esa o'quvchilarda baholarga nisbatan ishonchsizlik, motivatsiyaning pasayishi, ta'lim jarayoniga nisbatan sovuqlik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, mezonlarga asoslangan baholash tizimi har bir bahoning o'ziga xos asosini belgilaydi. Bu mezonlar avvaldan aniqlashtirilgan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ochiq tarzda muhokama qilingan bo'ladi. Natijada o'quvchi nimani o'rganishi va qanday natijaga erishishi kerakligini aniq tushunadi. Bu yondashuv o'z navbatida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshiradi, ular o'z faoliyatini belgilangan mezonlar bilan solishtirgan holda o'z ustida mustaqil ishlashni o'rganadilar.

Mezonlarga asoslangan baholashning asosiy maqsadi – ta'lim jarayonini adolatli, shaffof, tahliliy yondashuvga asoslangan tarzda tashkil etishdan iborat. Bu tizim orqali o'quvchilarning bilim darajasi va rivojlanish sur'atlarini doimiy monitoring qilish mumkin bo'ladi. Baholash nafaqat yakuniy natijani aniqlash, balki o'quvchi o'zlashtirish jarayonidagi bosqichlarni ham nazorat qilishga xizmat qiladi. Mezonlarga asoslangan baholash o'qituvchi uchun ham qulay, chunki u har bir o'quvchining individual yondashuvga muhtoj tomonlarini ko'ra oladi va dars jarayonini tegishli yo'nalishga yo'naltira oladi.

Ushbu yondashuv ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni shakllantirish, ta'limda shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, o'quvchi yozma ish topshirganida, baho qanday mezonlar asosida qo'yilganini biladi: imlo, mazmun, dalillarning ishonchliligi, mantiqiy izchillik, mustaqil fikr yurita olish darajasi kabi mezonlar har biri alohida e'tiborga olinadi.

Natijada, o'quvchi aynan qaysi sohalarda xatolarga yo'l qo'ygani tahlil qila oladi va keyingi safar bu jihatlarni inobatga olib, o'z ishini takomillashtiradi.

Amaliyotda mezonlarga asoslangan baholashning yana bir muhim vazifasi – standartlashtirishdir. Ya'ni, barcha o'quvchilarni teng sharoitda baholash, noxolislik va shaxsiy fikrga asoslangan baholardan xalos bo'lish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, bu yondashuv ta'lim muassasalarining reytingini shakllantirishda, metodik materiallarni ishlab chiqishda, davlat nazorati va akkreditatsiyadan o'tishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shunga qaramay, mezonlarga asoslangan baholash tizimini to'liq joriy qilish uchun muayyan shart-sharoitlar va metodik tayyorgarlik zarur. Eng avvalo, baholash mezonlari sodda, tushunarli, aniq va amalga oshiriladigan bo'lishi lozim. Ular o'quvchilar tomonidan to'liq anglanishi, o'qituvchilar tomonidan esa izchil qo'llanilishi zarur. Bundan tashqari, bu yondashuvni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarning baholash kompetensiyasini oshirish, ularga doimiy uslubiy yordam ko'rsatish ham dolzarbdir.

Umuman olganda, mezonlarga asoslangan baholash tizimi ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv olib kiradi, o'quvchi faoliyatining har bir bosqichini izchil tahlil qilishga imkon yaratadi, o'qituvchining ishini obyektivlashtiradi, o'quvchining esa shaxsiy rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Ta'limda mezonlarga asoslangan baholashni to'liq joriy etish orqali ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, bilimni faqat yodlash emas, balki tahlil qilish, tatbiq etish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal eta olish qobiliyatlarini shakllantirishga erishish mumkin.

Shunday qilib, bu yondashuv nafaqat baholashning o'zini, balki butun ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim vositaga aylanadi.

### **XULOSA**

Maktab ta'limida o'quvchilar kompetensiyasini baholashning zamonaviy mezonlari va modelini yaratish bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Dunyo ta'limi rivojlanish tendensiyalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy bilimga yo'naltirilgan baholash tizimlari endi o'quvchining real hayotda qo'llay oladigan ko'nikma va malakalarini aniqlab bera olmaydi. Shu sababli kompetensiyaviy yondashuv asosidagi baholash mexanizmlari ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularning XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida qabul qilinayotgan konseptual qarorlar, xususan, Davlat ta'lim standartlari va uzluksiz ta'limni modernizatsiya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar kompetensiyalarni baholashga doir yondashuvlarni takomillashtirishga mustahkam

poydevor yaratmoqda. Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, formatif baholash, differensial yondashuv, diagnostik monitoring va raqamli baholash vositalari o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini aniq, shaffof va tizimli kuzatish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Umumiy o'rta ta'limning davlat standarti to'g'risida"gi 787-son qaror. 2022-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi". 2022-yil 28-yanvar.
3. Болотов В.А., Леонтьев А.А. Компетентностная модель образования. – Москва: Педагогика, 2009. – 215 с.
4. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 356 p.
5. Mullis I.V.S., Martin M.O. TIMSS 2019 International Results. – Boston: IEA, 2020. – 420 p.
6. Abduqodirov A., Toshpulatov Sh. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2021. – 184 b.
7. Kurbatov V. Kriterial baholash metodologiyasi. – Moskva: Akademkniga, 2018. – 198 s.
8. Bower J., Staley L. Digital Assessment in Education: New Approaches. – London: Routledge, 2020. – 240 p.